


AHOLINING INFLYATSION KUTILMALARI

2025
AVGUST

jami 3 546 ta
respondent
qatnashdi



Avgust oyida aholining kelgusi 12 oylik inflyatsion kutilmalari o'tgan oyga nisbatan **0,7** foiz bandga pasayib, **12,2** foizga teng bo'ldi.



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024						2025					
	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	45	47	51	56	57	63	59	59	57	50	51	48
Yoqilg'i va energiya narxining qimmatlashishi	47	46	51	57	50	52	48	47	49	45	45	41
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	39	31	28	28	22	23	20	18	22	35	34	31
Transport xarajatlarining oshishi	28	26	30	35	30	31	28	29	32	30	27	26
Asosiy oziq-ovqatlarning qimmatlashishi	25	24	26	26	26	28	28	26	25	22	24	26
Valyuta kursining o'zgarishi	50	51	51	55	46	41	39	38	37	27	30	24
Monopoliya va narxlarning sun'iy oshirilishi	29	28	31	33	25	32	26	26	26	24	24	22

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **valyuta kursining o'zgarishi, yoqilg'i va energiya resurslari** hamda **kommunal xizmatlarning qimmatlashishini** ta'kidlagan aholi respondentlari ulushi kamaygan bo'lsa, **oziq-ovqat mahsulotlarining qimmatlashishini** qayd etgan aholi respondentlari ulushi ortdi.


TADBIRKORLARNING INFLYATSION KUTILMALARI

2025
AVGUST

jami 1 530 ta
respondent
qatnashdi



Tadbirkorlik subyektlarining inflyatsion kutilmalari ham o'tgan oyga nisbatan **0,3** foiz bandga sekinlashib, **11,8** foizni tashkil etdi.



Inflyatsion kutilmalarning omillari (respondentlar ulushi, foizda)	2024					2025						
	sen	okt	noy	dek	yan	fev	mar	apr	may	iyun	iyul	avg
Kommunal xizmatlarning qimmatlashishi	46	42	49	52	54	58	52	55	54	47	47	45
Yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi	44	42	48	49	49	50	45	46	48	43	42	40
Ish haqi va nafaqalarning oshishi	38	30	29	25	26	22	23	23	24	33	34	33
Transport xarajatlarining oshishi	31	29	32	34	32	34	31	31	37	32	31	31
Valyuta kursining o'zgarishi	51	50	51	52	51	43	43	43	40	31	31	25
Xomashyo narxlarining qimmatlashishi	27	25	25	25	25	27	25	27	28	25	25	24
Soliq yukining yuqoriligi	27	23	25	27	24	27	26	27	27	25	26	24

Kelgusida narxlarga oshiruvchi bosim ko'rsatishi mumkin bo'lgan asosiy omillar sifatida **valyuta kursining o'zgarishi, kommunal xizmatlar, yoqilg'i va energiya resurslari qimmatlashishi** hamda **soliq yukining yuqoriligi**ni ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi kamaydi.

INFLYATSION KUTILMALAR – SOHALAR KESIMIDA

2025
AVGUST



Respondentlar

Aholi – 3 546 ta

Tadbirkorlar – 1 530 ta



Aholining yuqori inflyatsion kutilmalari **ilm-fan va ta'lim** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **tashish xizmatlari** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.





Tadbirkorlarning yuqori inflyatsion kutilmalari **ilm-fan va ta'lim** sohasida faoliyat olib boradigan korxonalar tomonidan qayd etilgan bo'lsa, kelgusida narxlar shakllanishi bo'yicha nisbatan past kutilmalar **hunarmandchilik** sohasida kuzatildi.

2025
AVGUST

Respondentlar
Aholi – **3 546** ta
Tadbirkorlar – **1 530** ta



Aholi inflyatsion kutilmalarining yuqori ko'rsatkichi **Surxondaryo viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past inflyatsion kutilmalar **Namangan viloyatida** istiqomat qilayotgan aholi tomonidan qayd etildi.




Tadbirkorlik subyektlarining yuqori inflyatsion kutilmalari **Samarqand viloyatida** kuzatilgan bo'lsa, nisbatan past kutilmalar **Andijon viloyatida** faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.


2025
AVGUST

jami 3 546 ta
respondent
qatnashdi

Daromadlari 20-30 mln soʻmgacha boʻlgan aholining inflyatsion kutilmalari nisbatan yuqori darajada shakllandi.



Hududlar kesimida aholining inflyatsion kutilmalar boʻyicha javoblar taqsimoti





SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
AVGUST

jami 3 546 ta
respondent
qatnashdi



Avgust oyi yakunlariga ko'ra, aholi tomonidan sezilgan inflyatsiya darajasi o'tgan oyga nisbatan **0,3** foiz bandga pasayib, **13,0** foizni qayd etdi.



Sezilgan inflyatsiya darajasining yuqori ko'rsatkichi **Samarqand viloyatida** qayd etilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **Andijon viloyatida** kuzatildi.


SEZILGAN INFLYATSIYA OMILLARI (AHOLI)

2025
AVGUST

jami 3 546 ta
respondent
qatnashdi



Iyul-avgust oylarida aholi tomonidan narxlarida
yuqori o'sish kuzatilgan asosiy turdagi tovar va
xizmatlar





SEZILGAN INFLYATSIYA (AHOLI)

2025
AVGUST

jami 3 546 ta
respondent
qatnashdi



Daromadlari mavjud bo'lmagan va daromadlari 10-30 mln so'm oralig'ida bo'lgan aholining sezilgan inflyatsiya darajasi nisbatan yuqori shakllandi.



Aholi tomonidan yuqori sezilgan inflyatsiya darajasi **ilm-fan va ta'lim** sohasi vakillari tomonidan bildirilgan bo'lsa, nisbatan past sezilgan inflyatsiya darajasi **savdo** sohasi vakillari tomonidan qayd etildi.